

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2022 Vol. 1 (4)

**www.tsuull.uz
www.metodika.tsuull.uz**

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Valijon Qodirov, Odiljon Akbarov

Chingiz Aytmatov ijodida manqurtlik illati tahlili va uning ma'rifiy ahamiyati.....4

Saodat Kambarova

Ijodkor shaxsiyatini o'rganishda optimal yondashuvlar.....19

Sulaymon Haydarov

O'zbekiston tarixi darslari samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari (tarixiy miniatyuralar misolida).....29

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Shohidaxon Yusupova

Ona tilini o'qitishda tasavvurning o'rni.....43

Klaraxon Mavlonova

7-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish mazmuni.....53

Malohat Axmedova

Talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik xususiyatlari.....68

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Safo Matchonov

Adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etishning konseptual asoslari.....79

Shahnoza Raxmonova

9-sinf adabiyot darslarida ramal, hazaj va rajaz bahrlarida yaratilgan janrlarni o'rgatish usullari.....92

Umida Shermatova

Adabiy ta'limda differensial yondashuv.....111

Iroda Ishonxanova

Alisher Navoiy ijodini qiyoslab o'rganish.....123

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etishning konseptual asoslari

Safo Matchonov¹

Abstrakt

Maqolada o'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish yo'llari adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etishda muhim vosita hisoblanishi, badiiy asar matni ustida ishlashning samarali usullaridan foydalanish uning mazmunini o'zlashtirishning asosiy sharti ekanligi xususida so'z yuritilgan. Adabiyotdan mustaqil ishlar o'quvchilarning badiiy asarni o'qish, his qilish, tushunish va g'oyaviy-estetik mazmunini o'zlashtirish bo'yicha dars jarayonida orttirgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashi, tasavvur doirasini o'stirishi, dunyoqarashini boyitishi, shu tariqa ma'rifiy, axloqiy tarbiyalashga ko'ra ijodiy, ta'limiy-rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etishi bayon etilgan. O'quvchilarning darslik yoki darslik-majmuada berilgan matnni o'qish, mazmunini o'zlashtirish, reja tuzish, qayta hikoya qilish, ifodali o'qish hamda mustaqil ishlarning boshqa turlarini bajarishlari orqali yozuvchi yaratgan badiiy olamni qaytadan kashf etishlariga erishishi, shu tariqa ijodkor o'quvchi darajasiga ko'tarilishi mumkinligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *matn, mustaqil ishlar, so'z san'ati, savol, tahlil, topshiriq, uy vazifalari, o'quv-biluv faoliyat.*

Kirish

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani bajarishning birdan-bir yo'li yosh avlodning o'quv-biluv, ko'nikma va malakasini shakllantirishdir. Hadislarda: "Beshikdan qabrgacha ilm

¹ Safo Matchonov – pedagogika fanlari doktori, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti professori.

E-mail: safomatchonov1947@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-0655-9502

Iqtibos uchun: Matchonov, S. 2022. "Adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etishning konseptual asoslari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (4): 79–91.

izla”, deyilishda juda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanishlar esa insonni ma’naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham xalq ta’limi oldidagi eng katta muammo o’quvchilarning o’quv-biluv faoliyatiga kelib taqalishi bejiz emas. Zero, o’zlashtirishning pastligi o’qituvchilarni hamisha qiynaydigan dolzarb masalalardan biridir. O’quvchilarning o’quv-biluv ko’nikma va malakalarini shakllantirishda adabiyotdan amaliy faoliyatga yo’llovchi mustaqil ishlar katta o’rin tutadi.

Ijtimoiy hayotdagi o’zgarishlarga bog’liq yangiliklarni adabiy ta’lim tizimiga tatbiq qilish o’quvchilarning fan asoslari va sharqona tarbiya mohiyatini chuqur o’zlashtirishga yo’naltirilgan bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish hamda mustahkamlash bo’yicha o’qitishning turli shakl-metodlarini, shu jumladan, adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish usullarini adabiyotshunoslik, pedagogika, didaktika, psixologiya, mantiq, tarix, metodika kabi fanlarning eng so’nggi yutuqlari asosida takomillashtira borishni taqozo etadi.

Asosiy qism

Adabiyta’limtizimidagikamchiliklar,xususan,o’quvchilarning o’quv-biluv ko’nikma va malakalarini shakllantirish metodlari bilan bog’liq muammolar milliy mafkura g’oyalariga tayangan adabiyot o’qitish metodikasi oldiga qator masalalarni hal qilish vazifasini qo’yadi. Zero, har qanday fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini kashf etadi, hayot hodisalarini o’rganadi. Inson uchun shubhasiz muhim bo’lgan, lekin hali ilm-fanda e’tirof etilmagan yoxud yangilanishga hayotiy ehtiyoj sezilgan masalalar yechimini izlaydi va tushuntiradi.

Adabiy ta’limning turli bosqichlarida mustaqil ishlarning maqbul tur va shakllaridan foydalanish, shu jarayonda o’quvchilarni adabiy tahlilga o’rgatish usullari, ularni kitobxonlikka o’rgatish orqali badiiy tafakkuri, estetik didlarini yuksaltirishga doir muammolar yuzasidan ancha-muncha ishlar qilingan. Masalan, B.P.Yesipovning “Darsda o’quvchilarning mustaqil ishlari”, T.R.Niyozmetovanning “Adabiyotdan mustaqil ishlar”, A.Zunnunovning “Badiiy asar tahlili metodikasi”, R.Qoriyevaning “Adabiyot darslarida badiiy tekstni tahlil qilish”, B.Turdiyevning “Yozma nutqni o’stirish yuzasidan praktikum”, O.Madayevning “Insho qanday yoziladi?”, M.Mirqosimovanning “Badiiy tahlil usullari”, Q.Husanboyevaning “Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili”, R.Niyozmetovanning “Uzluksiz ta’lim tizimida o’zbek adabiyotini o’rganish metodikasi”, S.Kambarovanning “Mustaqil mutolaa va ada-

biy tahlil” kabi qo‘llanmalarida mazkur masala xususida e‘tiborli kuzatishlar mavjud. Lekin uzluksiz ta‘lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish usullari, ularning ta‘lim tizimidagi ilmiy-amaliy ahamiyati, ta‘lim oluvchilarning o‘quv-biluv malakalarini shakllantirishdagi o‘rni to‘g‘risida metodik yordam ko‘rsatadigan qo‘llanmalar yo‘q darajada. Borlarida ham masalaga umumiy tarzda yondashish hollari kuzatiladi.

Mustaqil ishlarni adabiyot o‘quv dasturi, predmeti va uni o‘qitish metodikasini o‘rganmasdan, adabiyotdan mustaqil ishlar tizimini yaratmasdan, shu jarayonda tug‘ilgan ilmiy-metodik farazlar, hukm-xulosalar hamda tajriba-tadqiqotlar natijalarini umumlashtirmasdan, tegishli tavsiyalar ishlab chiqmasdan turib muayyan samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq:

1. Adabiyotlardan muammoning ilmiy-amaliy va metodik tarixini o‘rganish.

2. O‘rta umumta‘lim tizimida qo‘llaniladigan adabiyotdan mustaqil ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari va mezonlarini, ta‘lim jarayonidagi o‘rni va rolini aniqlash, turlarini tasnif qilish.

3. Adabiyotdan mustaqil ishlar vositasida o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyati yuzasidan o‘zlashtiradigan bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish usullarini o‘rganish, eng maqbullarini amaliyotga joriy etish.

4. Mustaqil ishlarning adabiy ta‘lim yutug‘ini ta‘minlashga qaratilgan eng qulay va samarali usullarini tadqiq etish. Bunda:

a) o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati va bog‘lanishli nutqi, xususan, badiiy-estetik tafakkurini o‘stirishga doir mustaqil ish turlari tizimini ishlab chiqish;

b) mustaqil ish usullari yordamida adabiy ta‘lim samaradorligini oshirish omillarini aniqlash va o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish muhim sanaladi.

Adabiyotdan mustaqil ishlar vositasida o‘quvchilarni darslik va badiiy asarlar ustida ishlash usullari bilan tanishtirish, matn ustida ishlashga o‘rgatish orqali asarning tub ma‘nosini o‘zlashtirishlariga erishish; badiiy adabiyotning ijodiy qonuniyatlari, so‘z san‘ati sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini muayyan asarlar misolida tushuntira bilish; yozma ijodiy ishlar (insho, bayon, esse, referat, ma‘ruza matni, taqriz, annotatsiya va h.k.) o‘tkazishda choraklik, yarim yillik yoki yillik rejalar bilan chegaralanmay, sinflar bo‘yicha bosqichma-bosqich izchillikda, undan uzluksiz ta‘lim tizimida yagona reja asosida ishlashga o‘tish; sinfdan tashqari o‘qish va turli

adabiy tadbirlarda ularning erkin va mantiqiy fikrlashiga imkoniyat yaratish kabi g'oyat muhim masalalarni hal etish zarur.

Adabiyotdan o'quv dasturlarida uy insholari, adabiy qahramonlarga tavsifnoma yoki maktublar yozish, ko'rgazmalar tayyorlash, badiiy kechalar, adabiy ekskursiyalar uyushtirish kabi mustaqil ish turlarini o'tkazish qayd qilingan bo'lsa-da, hali muayyan darajada izchillikka ega emas. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitob at-tifl" ("Bolalar uchun kitob") darsligida o'quvchilarning mustaqil ishlariga doir xat yozmoq shartlari yuzasidan quyidagi tavsiyalari bugungi kunimiz uchun ham ibratlidir:

– xatni kamso'z, serma'ni yozmoq kerak;

– maktubga haqorat, ta'na, hazil, fisq va gunohga ta'luq so'zlar aslo yozilmasun;

– xat borib tegadurg'on odamni mulohaza qilib, oni fahm va bilishiga muvofiq bo'lganda o'shal muddaoni o'zi yaxshi tushunib, so'ngra yozishi kerak;

– g'azab va xafalik va yo nihoyat xursand va bexushlik vaqtlarda xat yozmay, holati darajai e'tidolga (mo'tadil) kelganda maktub yozmoq avlodur" [Behbudiy 1987, 34]

Mustaqilishlardarsjarayonidaham, darsdantashqarivaqtlarda ham o'tkaziladi. **Darsda mustaqil ishlarning** darslik va kitob ustida ishlash (darslik matni ustida bo'yicha reja tuzish, savollarga javob berish, o'qilgan materiallar yuzasidan xulosalar chiqarish, darslik suratlari ustida ishlash va h.k.) kabi turlari qo'llaniladi. Olimlarning fikricha, mustaqil ishlar ta'lim oluvchilarning "aqliy imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradigan, ularning ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajariladigan vazifalar bo'lib, bilim oluvchilarning nafaqat bilim darajalari, balki ularning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli faoliyatdir [Rahimov 2018, 15].

Uyda bajariladigan mustaqil ishlarning turlari: darslik matnini o'rganish, yodlash, tajribalar o'tkazish va h.k. Mustaqil ishlarning mazkur turlari adabiyot o'qitishga ham taalluqlidir.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni o'qigan asarlari yuzasidan sinf bo'yicha birgalikda yoki mustaqil reja tuzish, reja asosida bayon, insho yozish, asarda tasvirlangan qahramonlarning xulq-atvoriga munosabat bildirish, bog'lanishli nutq malaklarini egallash, spektakllardan olgan taassurotlarini og'zaki va yozma tartibda bayon etish, rasimga qarab hikoya tuzish, o'rta va yuqori sinflarda turli janrlarga mansub asarlar bo'yicha sodda va murakkab rejalar

tuzish, bayon, insho, taqriz, referat yozish, adabiy qahramonlarni og'zaki va yozma tavsiflash, darsliklar, adabiy-tanqidiy, publitsistik asarlardan konspektlar olish, tezislar tuzish, o'qigan maqola va kitoblariga annotatsiyalar yozish, badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganishga doir leksik, frazeologik, uslubiy mashqlar bajarish, adabiy kechalar, ekskursiyalar, bahs-munozaralar, o'tkir zehnlilar mushoirasi tipidagi mustaqil ish turlari rejalashtiriladi.

Mustaqil ishlar, shuningdek, "kuzatish natijalarini yoki berilgan mavzu bo'yicha to'plangan dalillarni tizimlashtirish, mavzuga oid asosiy muammolarni aniqlash, tushunchalarni guruhlariga ajratish; o'rganilgan ma'lumotlarni bir-birlari bilan taqqoslash va umumlashtirish, umumiy xulosalar chiqarish va ularni asoslash; mustaqil o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llash" [Tursunova 2008, 12] vazifalarini amalga oshirishga ham zamin yaratadi.

Bunday ish turlari adabiyotning so'z san'ati sifatidagi o'ziga xos qonuniyatlari bo'yicha ma'lum darajada bilim olmasdan, asar g'oyasi bilan hayot haqiqati o'rtasidagi aloqani farqlamasdan, tasvirlangan voqelikka yozuvchi munosabatini anglamasdan, o'qiganlarini umumlashtirish malakasini egallamasdan turib badiiy asar mohiyatini to'la ma'noda tushunib bo'lmaydi. Yuqoridagi fikrlardan san'at asari yuzaki munosabatni ko'tarmasligi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Adabiyot nazariyasiga oid bilimlar o'quvchilarga shunchaki nazariy ma'lumot tarzida emas, balki badiiy asar mohiyatini to'g'ri tushunish, estetik go'zalligini his etishga o'rgatish maqsadida beriladi. Adabiy-nazariy tushunchalarni puxta o'zlashtirgan o'quvchigina badiiyat sirlarini teran anglaydi.

Badiiy syujet, kompozitsiya, mavzu, konflikt, g'oya, adabiy qahramon, badiiy detal, tasviriy ifoda vositalari tog'risidagi tushunchalar so'z san'atining o'ziga xosliklari yuzasidan tasavvur berishga qaratilsa, adabiy an'analar, oqimlar, ijodiy metodlar, adabiy tur va janrlar haqidagi bilimlar adabiyotning tarixiy taraqqiyoti, qardosh xalqlar adabiyoti bilan aloqasi, ijtimoiy estetik mohiyati bo'yicha umumlashtiruvchi xulosaga tayyorlaydi. Shunga ko'ra mustaqil ishlarni "yangi bilimlarni o'zlashtirishni ko'zda tutadigan; olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish bilan bog'liq; takrorlash bilan aloqador bo'lgan, o'quvchilarning olgan bilimlari, egallagan ko'nikmalari va malakalarini tekstirish, nazorat qilish uchun qo'llaniladigan mustaqil ishlar tarzida guruhlash mumkin" [To'xliyev 2006, 138].

Adabiyot fanidan ko'zda tutilgan mustaqil ishlar zahirida uyga beriladigan vazifa va topshiriqlar turadi. Demak, u ma'lum

ma'noda, o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni takrorlash orqali mustahkamlashga qaratiladi. Uy vazifalari garchi darsliklarda savol va topshiriqlar tarzida aniq ko'rsatilgan bo'lsa ham sinf o'quvchilarining umumiy saviyasi, bilim darajasi, tayyorgarligiga qarab, ularni qisqartirish yoki kengaytirish mumkin. Ammo har qanday holatda ham o'qituvchining aniq metodik ko'rsatmalari zarur bo'ladi. Negaki, muayyan mavzu yuzasidan vazifalarning to'g'ri, aniq, qisqa va qiziqarli yo'sinda berilishi adabiyot o'qitish metodikasining muhim talablaridan biridir.

Mustaqil ishlarning katta qismini **darslik va badiiy asarlar matni ustida ishlash** topshiriqlari tashkil etadi. O'quvchi asar matni ustida ishlash jarayonida undagi fikr-g'oyaning mag'zini chaqishga intiladi. Metodist olimi Q.Husanboyeva bu borada to'g'ri ta'kidlaganidek, "Asar ustida ishlayotgan o'quvchilarga so'zga ehti-yotkorlik bilan yondashishni o'rgatish kerak. Yosh tanqidchi yozuvchi tomonidan bitilgan so'z mo'jiza ekanini tushunishi, his qilishi juda muhim. Muallif qo'llagan ayni so'z tagida qanday fikr mavjudligiga e'tibor berishni o'rgatish – adabiyot o'qituvchisining burchi. Shu yo'l bilan o'quvchini qiynayotgan narsalarni o'zgalarni ham qiynaydigan tarzda ifodalashga, unda tug'ilgan fikrni boshqa bir kishiga ta'sir qiladigan yo'sinda bayon etishga o'rgatiladi. Bunday talablarga o'rgangan o'quvchi esse, hikoya, she'r yoki insho yozishda hamisha o'ziga yoqqan, uni bezovta qilgan – shodlantirgan yoki qayg'uga solgan, dilini quvontirgan yoxud og'ritgan barcha narsalarni so'z bilan ifodalashga, uni ta'sirli, o'zgalarga yuqtira oladigan qilib ifodlashga harakat qiladi. Ana shunda so'zning qudratini, ijodning mashaqqati va lazzatini his qiladi" [Husanboyeva 2009, 232]. Natijada o'quvchi bilimlarni passiv qabul qiluvchidan faol o'zlashtiruvchiga aylana boradi. Unda mustaqil fikrlash malakasi shakllanib, yangicha o'quv-biluv sifatleri tarkib topadi. Afsuski, ko'p hollarda adabiyotdan uy vazifalarini ko'pchilik chala bajarishini yoki umuman bajarmasligi hollari ham uchraydi.

Uy vazifalarining sifatsiz bajarilishi ayri hollarda qo'ng'i-roqdan so'ng shoshilinch berilishi, topshiriqlarning rang-barang bo'lishiga e'tiborsizlik, vazifani bajarish yo'llarini namuna tarzida ko'rsatmaslik, o'quvchilarning darslik ustida ishlash malakasini muntazam suratda shakllantira bormaslik, vazifaning bajarilishini nazorat qilmaslik va nihoyat, vazifani bajarmaganlarga befarq munosabatda bo'lishning salbiy oqibatlaridir. Adabiyotdan mustaqil ishlar natijasini belgilaydigan mezon o'quvchilarning dastur bo'yi-cha o'rganilgan asarlar adabiy-estetik tahlili darajasidir.

Tahlil amalda turli shakl va ko‘rinishda bo‘ladi. U badiiy matnni o‘qish jarayonida o‘qituvchining izohi shaklida ham, asarni detallashtirib ko‘zdan kechirish shaklida ham, qahramonlarni tavsiflash yoki tasviriy ifoda vositalarni aniqlash shaklida ham bo‘lishi mumkin. Faqat ma‘nodan xoli bo‘lmaydi. Aksincha, chuqur ma‘nodorlik adabiy tahlilning eng birinchi va asosiy shartidir.

Tahlilning hamisha ma‘lum maqsadga qaratilishi uning shakli va mazmunini belgilaydi.

Aytaylik, o‘quvchilar o‘qituvchining topshirig‘iga ko‘ra asar syujeti va uning elementlarini aniqlasinlar. Agar tahlil shuning bilan o‘z nihoyasiga yetsa, u butunlay befoyda. Bundan tahlil vositasida syujet va uning elementlarini aniqlashning ahamiyati yo‘q degan ma‘no kelib chiqmaydi. Gap shundaki, syujet va uning elementlari o‘z holicha o‘quvchini qiziqtirmaydi. U asarning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini, ichki tuzilishini, hayot bilan aloqasini ochish kabi biror zaruriy maqsadga xizmat qilsagina tahlildan ko‘zlangan maqsad amalga oshadi. Maqsad esa turlicha bo‘lishi mumkin. Lekin natija ijodkor yaratgan badiiy olamga chuqurroq kirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Asar tiliga oid tahlil jarayonida o‘quvchilarga matndan o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, kinoya va mubolag‘a kabi tasviriy ifoda vositalarini topish va tagiga chizish vazifasi topshirilsa, ular bu ishni yaxshi uddalashlari mumkin. Ammo shuning bilan cheklanilsa, tahlil nomigagina bo‘ladi. Agar o‘qituvchi asar matni ustida ishlash jarayonida muallif nima uchun sifatlash, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘aga murojaat sirini ochsa, ya‘ni ularning asarda qanday vazifani bajarishlari, yozuvchi badiiy tasvir vositalarini qo‘llash orqali qanday maqsadni ko‘zlagani va uning mazkur asarda nechog‘li amalga oshganiga e‘tiborini qaratsagina ijodkor yaratgan badiiy olamga yo‘l ochiladi.

Matnda badiiy tasvir vositasi bor-yo‘qligini aniqlash, qayd etish – bu hali masalaga kirish hisoblanadi. Maqsad ularning mazmun-mohiyatini ochish, mag‘zini chaqish, ma‘no ahamiyatini aniqlash, adabiy qahramon timsolini yaratishdagi rolini belgilashdan iborat. Har qanday metafora o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undaydi. U o‘ziga xos topshiriq bo‘lgani bois o‘quvchi uni yechishga harakat qiladi.

She‘riy asarlardagi metaforik so‘zlar tahlili o‘quvchini har bir so‘zni diqqat bilan o‘qishga majbur qiladi, badiiy so‘z bag‘riga yashiringan ma‘no tovlanishlarini tushunishga tayyorlaydi. Tahlil jarayonida o‘quvchi so‘zlardan yuzaki o‘qimasdan, ma‘nosiga

tushunib o'qishga o'rganadi. Bunday tahlil ijodkorning badiiy mahoratini ochadi, dunyoqarashini aniqlash, shu tariqa kitobxonlik madaniyatini ko'tarishga xizmat qiladi.

Ayrim o'qituvchilar **epik asarlar tahlilining** jo'nlashtirib, yozuvchini o'quvchi bilan yonma-yon qo'yib qo'yadilar. Holbuki o'quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga "Qahramonning bu ishi to'g'rimi?", "Uning o'rnida bo'lganingda nima qilar eding?" kabi ijodiy fikrlashga qaratilmagan savollar o'rniga "Shu vaziyatda qahramon o'zini boshqacha tutishi mumkin edimi?", "Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holat-da tasvirlaydi?" singari savollar qo'yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishish imkoni tug'iladi.

O'quvchilarni adabiy tahlil vositasida badiiy ijod qonuniyatlari bilan yaqindan tanishtirishda **adabiy-tanqidiy maqolalardan** foydalanish muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarni mavzuga aloqador ilmiy-metodik adabiyotlar bilan tanishtirish ular tahlilining keng qamrovli, fikrlari izchil, teran va asosli, bayon qilish uslubining ravon bo'lishiga yordam beradi. Ammo shunisi ham borki, har qanday tahlil, yozuvchining badiiy mahoratiga doir izoh asar mutolaasining o'rnini bosa olmaydi. Aytaylik, I.Sulton, M.Qo'shjonov, H.Yoqubov, U.Normatov va boshqa taniqli olimlarning "O'tkan kunlar" romani atroflicha tahlil qilingan maqolalari, adibning o'g'li Habibullo Qodiriyning roman tarixiga oid izohlari qanchalik mukammal, to'g'ri va aniq bo'lmasin, ularni o'qish bevosita asar mutolaasi o'rniga o'tmaydi. Qolaversa, romanni o'qigan kitobxongagina u haqdagi tahlil tushunarli bo'ladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishi bo'yicha mustaqil ishlarga doir metodlar salmog'i quyi sinflardan yuqori sinflarga tomon ortib o'quvchilarning bevosita bayon qilishi bilan bog'liq turlari kamayib boradi. Bu esa bolalarning yozma nutqini o'stirishga qaratilgan ish turlari bilan muntazam shug'ullanish imkonini yaratadi. Shu tariqa ayrim-ayrim fikrlardan umumlashma xulosalar chiqarish malakasini egallagan o'quvchilarda bog'lanishli nutq ham o'sa boradi.

O'quvchilarning yozma ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan mustaqil ishlar sirasiga kiruvchi **taqriz** yozilish uslubiga ko'ra adabiy-ijodiy insholarga yaqin tursa, mazmunan adabiy-tanqidiy maqolalarga hamohangdir. Shuning uchun u puxta tayyorgarlikni taqozo etadi.

O'quvchi berilgan topshiriqni bajarishda darslik materiallari

bilan cheklansa, u yoki bu yozuvchi ijodi, uning biror asari to'g'ri-sidagi fikri darslik mualliflari va o'qituvchi fikri doirasida (ular darajasida emas) bo'lishi ilg'or o'qituvchilar faoliyatida allaqachon o'z tasdig'ini topgan. Binobarin, o'quvchi darsda o'zlashtirgan bilimlarini qo'shimcha adabiyotlarni mustaqil mutolaa qilib bormas ekan, tushunchasi ham, dunyoqarashi ham chegaralangan bo'ladi.

Axborotlar ko'lami haddan ziyod kengaygan kompyuter asri xalq ta'limi tizimi, shu jumladan, adabiyot o'qitish metodikasi ham muttasil yangilanishni va ijodiy munosabatni taqozo etadi.

Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlarning asosiy shakllaridan biri **o'quv topshiriqlaridir**. O'quv topshiriqlari yakka tartibda mustaqil bilim olish va o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amalda qo'llashga qartilishi bilan ta'lim tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. O'quv topshiriqlari o'qituvchi tomonidan uyushtiriladigan, nazorat qilinadigan va baholanadigan o'quvchining o'z bilimini oshirish ustidagi faoliyatidir.

O'quv topshiriqlari shaklan ham, mazmunan ham o'ziga xos tartib-xususiyatga ega o'quv materialidir. Har qanday topshiriq o'quvchining bilimi, tajribasi, o'quv predmetiga qiziqishi hisobga olingan taqdirdagina muayyan natijaga erishish mumkin. Bu esa o'quv topshiriqlarining ma'lum shakl, mazmun va mezonlar asosida tuzilishini taqozo etadi.

Metodist S.Kambarovanning qayd etishicha, "Savol va topshiriqlar o'quvchini fikrlash jarayoniga olib kiradi. Agar o'quvchi fikrlash jarayonida nafaqat kitobiy, balki hayotiy kuzatishlari, shaxsiy tajribalariga tayanib mulohaza yuritsa, bu uning aqliy faoliyatini yanada faollashtiradi, tafakkurini o'stiradi. Savol va topshiriqlar nafaqat umumiy mavzu, balki asosiy g'oya, ma'lum fikr va ma'no jihatidan uzviy bog'liq bo'lgani ma'qul. Yangi materialni o'rganish, mustahkamlash va umumlashtirish jarayonida beriladigan savol va topshiriqlar o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga yordam beradi. Bilimni baholashda esa javobning to'liq va to'g'riligi, o'rganilgan materialni tushunish darajasi hamda axborotning mantiqiy izchilligi hisobga olinishi zarur" [Kambarova 2018, 42].

O'quvchining uyga berilgan o'quv topshiriqlari ustidagi faoliyati dars jarayonidagi faoliyatidan shunisi bilan farqlanadiki, u topshiriqni bajarishda o'qituvchi maslahati, sinf jamoasining yordamiga emas, o'z bilimi va tajribasiga tayanadi. Tashqi ta'sirning bo'lmasligi mustaqil ishni bajarishdagi o'quvchi imkoniyatlariga keng yo'l ochadi. Bu yerda muhimi tashqi ta'sirning bo'lish-bo'lmasligi emas, balki o'quvchining ijodiy fikrlash malakasi shakllanishidir.

Bu borada professor R.Niyozmetova o'rinli ta'kidlaganidek, "O'quvchi asar muallifining niyatini, qahramonga munosabatini, voqea-hodisalarning sabab va natijalarini mushohadadan o'tkaza boshlaydi. Bu jarayon turmush haqiqatini tadqiq etish bilan bog'liq holda kechadi. Uning mustaqil izlanishlari to'g'ri yo'ldan borsa va to'g'ri yechimga olib kelsagina, o'z ishidan qanoatlanadi, bu ishni davom ettirish sari ruhlanadi. Ana shu izlanishlarda o'quvchiga to'g'ri yo'nalish beradigan, ba'zan ikki yo'ldan birini tanlash vaziyatiga soladigan, chuqur mushohadaga undaydigan turtkilar kerak bo'ladi, xolos. Matnga doir beriladigan savollar va topshiriqlar ana shunday turtki vazifasini o'taydi [Niyozmetova 2008, 145]

Darslik va majmualardagi savol-topshiriqlar o'quv topshiriqlarining asosiy shakli sifatida xuddi shu vazifani bajarishga qaratilgan. Shuning uchun ham savol-topshiriqlarga doir muammolar metodist olimlar va ijodkor o'qituvchilarni ko'pdan buyon qiziqtirib keladi. Umumta'lim maktablari darslik-majmualaridagi savol-topshiriqlarni quyidagicha 4 guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish va umumiy mazmunini o'zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

2. O'zlashtirilgan adabiy-nazariy tushunchalarni mustahkamlashga doir savol-topshiriqlar.

3. Yozuvchilarning hayoti va ijodi yuzasidan berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

4. Asar voqealari misolida o'quvchilarning hayotga munosabatini aniqlashga doir savol-topshiriqlar.

Har bir savol javob talab etadi, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va umumlashtirishni nazarda tutadi. Javoblar darsliklardagi badiiy asarlarning umumiy mazmuni, syujeti va kompozitsiyasida ham, adabiy qahramonlarning xatti-harakati, fe'l-atvori tasvirida ham, yozuvchi qo'llagan tasviriy ifoda vositalarida ham, shuningdek, darsliklar tarkibidagi ilmiy-metodik maqolalarda ham o'z aksini topadi. Ammo amaldagi har bir darslik alohida mualliflar tarafidan yaratilganligi uchun ham ko'p hollarda savol-topshiriqlarning umumiy tarkibida ham, mazmun-mohiyatida ham qat'iy tizimga amal qilinmaganligi yaxshi ayon. Bu esa mualliflar o'rtasida ijodiy hamkorlikni tizimli holda tashkil etishni talab etadi.

Oddiy kitobxon kitobni erkin tanlab o'qiydi va u, odatda, asarning biror jihatini (voqealar qurilishi, asar kompozitsiyasi, konflikt, syujet, badiiy detal kabi nazariy tushunchalar) o'rganishni nazarda tutmaydi. O'quvchi esa shunchaki kitobxon emas. U

o'qituvchining topshirig'i, asar mutolaasi jarayonida nimalarga e'tibor berish yuzasidan maslahati, talabiga ko'ra ma'lum bir maqsad bilan o'qiydi. O'qituvchining topshiriq-tavsiyasi o'quvchi uchun asarni tushunishga kalit vazifasini o'taydi.

Badiiy asarlar nomi ilmiy asarlar nomidan obrazlilik bilan ajralib turadi. Unda ma'lum ma'noda adabiyotning tarixiy taraqqiyoti ham aks etadi. Shuning uchun ham noshirlar o'rtasida bot-bot ishlatiladigan "yaxshi nom – asarning yarim yutug'i" gapi bejiz yaratilmagan. Asar nomida uning mavzu doirasi aks etadi. O'quvchining kitob bilan tanishuvi uning nomi, muallifi haqidagi ma'lumotlar bilan cheklanmaydi. Kitob apparati, xususan, titul varag'i, annotatsiya, epigraf, so'zboshi, so'nggi so'z, mundarija, kishilar va joy nomlari ko'rsatkichi, izohlarda shunday ma'lumotlar jamlangan bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv-biluv ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv adabiyotlari bilan ishlashga doir: asar sarlavhasi bilan ishlash, ko'chirmalar olish, epigraflar tanlash, reja tuzish, konspekt olish kabi mustaqil ish turlari alohida o'rin tutadi va o'ziga xos yondashuvlarga ehtiyoj tug'diradi.

Xulosa

Bayon etilgan fikrlardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

- adabiyot o'qitish metodikasi kitobxonlikka tayanadi, o'z oldidagi vazifani bajarishda ta'limning turli shakl va metodlaridan, jumladan, mustaqil ish turlaridan unumli foydalaniladi;

- adabiyotdan mustaqil ishlar ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi sanaladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari o'quv topshiriqlarining o'qituvchi ishtirokisiz, bevosita o'quvchi tomonidan bajarilishi bilan belgilanadi va asosan matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi, qo'shimcha adabiyotlardan samarali foydalanishni nazarda tutadi;

- mustaqil ishlarning asosiy qismi uy vazifalari shaklida beriladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida mustaqil izlanish faoliyatida bo'ladilar, natijada bilimlari chuqurlashadi, dunyoqarashlari kengayib boradi;

- mustaqil idrok qilish asosida o'zlashtirilgan bilim va malaka xotiraga muhrlanib qoladi, o'quvchilarda o'z kuch va imkoniyatlariga ishonch uyg'otadi, fe'l-atvorida qat'iyatlilik, hayotga mas'uliyat tuyg'ularini tarbiyalaydi, tafakkurini charxlaydi, nutqini o'stiradi;

- mustaqil ishlarning samaradorligi o'qituvchining o'ziga bog'liq: ko'p hollarda ularning to'g'ri uyushtirilmasligi, xususan, uyga beriladigan vazifalarning pala-partish ado etilishi, bajarilish

yo'llarining tushuntirilmasligi o'quvchilarning ularga nisbatan yuzaki munosabatda bo'lishiga olib keladi;

– mustaqil ishlar maqsad va vazifalari, ilmiy-amaliy ahamiyatiga ko'ra o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar

Бехбудий, Маҳмудхўжа. 1987. *Китоб ат-тифл*, Тошкент: Ўқитувчи.

Ниёзметова, Роза. 2007. *Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси*. Тошкент: Фан.

Rahimov, Baxtiyor. 2018. "Bitiruvchi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish usullari". *Xalq ta'limi* 1: 13–15. Toshkent.

Турсунова, Н.Н. 2008. "Ўқув адабиётлари билан мустақил ишлаш технологияси". *Касб-хунар таълими* 6: 11–12. Тошкент.

Ҳусанбоева, Қундузхон. 2009. *Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили*, Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.

Kambarova, Saodat. 2018. Mutolaaga qiziqtirishga doir bir usul xususida. *Til va adabiyot ta'limi* 6: 42–45. Toshkent.

Conceptual bases of the organization of independent work on literature

Safo Matchonov¹

Abstract

The article discusses that the ways of teaching students to work on a literary text are an important means of organizing independent work with literature, the use of effective methods of working on the text of a literary work is a necessary condition for mastering its content. It is stated that independent work with literature consolidates the acquired knowledge, skills and abilities, expands the imagination, enriches the worldview, thereby enlightening, morally educating, has a creative, educational and developmental value in the process of teaching students to read, feel, understand and master the ideological and aesthetic content of artistic work. It reveals the opportunity for pupils to rediscover the artistic world created by the writer, thereby rising to the level of a creative reader, by reading the text in a textbook or textbook complex, mastering its content, planning, retelling, expressive reading and other types of independent work.

Key words: *text, independent work, art of the word, question, analysis, task, homework, learning activity.*

References

- Бехбудий, Махмудхўжа. 1987. *Китоб ат-тифл*, Тошкент: Ўқитувчи.
- Ниезметова, Роза. 2007. *Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси*. Тошкент: Фан.
- Rahimov, Baxtiyor. 2018. "Bitiruvchi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish usullari". *Xalq ta'limi* 1: 13–15. Toshkent.
- Турсунова, Н.Н. 2008. "Ўқув адабиётлари билан мустақил ишлаш технологияси". *Касб-ҳунар таълими* 6: 11–12. Тошкент.
- Хусанбоева, Қундузхон. 2009. *Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили*, Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.
- Kambarova, Saodat. 2018. Mutolaaga qiziqtirishga doir bir usul xususida. *Til va adabiyot ta'limi* 6: 42–45. Toshkent.

¹ Safo Matchonov – Doctor of pedagogical sciences, professor at Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region.

E-mail: safomatchonov1947@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-0655-9502

For citation: Matchonov, S. 2022. "Conceptual bases of the organization of independent work on literature". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (4): 79–91.